

SURXON VOHASI MUSIQIY FOLKLORIDA NAVRO‘Z MAROSIM MADANIYATI

Mirzayeva Komila Sheraliyevna*Termiz ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi o‘qituvchisi,**Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros**ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi*komilamirzayeva8@gmail.com<https://orcid.org/0008-0305-6896-1131>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxon vohasi folklor musiqasi hamda voha xalqining marosim madaniyati tahlil qilinadi. Surxon vohasi folklor musiqa san‘atidagi marosimlar va ularning tavsifi haqida fikr-mulohazalar yuritiladi. Shuningdek, folklor musiqa san‘ati yoritib beriladi. Surxon vohasi aholisining marosimlari va rasm-rusumlari, ularni o‘tkazish usullari, boshqa tumanlar bilan o‘xshash jihatlari, shuningdek, urf-odatlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Tadqiqot natijalari Surxon vohasi madaniy merosining O‘zbekiston etnografiyasi rivojida muhim o‘rnini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: marosimlar, milliy kiyim, madaniy meros, Surxondaryo vohasi, o‘zbek an‘analari, moddiy madaniyat, Navro‘z, Navro‘z sabo, xalq, folklor qadriyati, boychechak, yil boshi.

Аннотация: В данной статье анализируются музыкальный фольклор Сурханского оазиса и обрядовая культура населения региона. Рассматриваются обряды, представленные в музыкальном фольклоре Сурханского оазиса, а также их особенности и содержание. Кроме того, освещаются основные аспекты народного музыкального искусства. Приводятся сведения об обрядах и обычаях жителей Сурханского оазиса, особенностях их проведения, сходстве с традициями других районов, а также об их национальных обычаях. Результаты исследования показывают важное место культурного наследия Сурханского оазиса в развитии этнографии Узбекистана.

Ключевые слова: обряды, национальная одежда, культурное наследие, Сурхандарьинский оазис, узбекские традиции, материальная культура, Навруз,

«Навруз сабо», народ, фольклорные ценности, бойчечак, начало года.

Annotation: This article analyzes the folklore music of the Surkhandarya oasis and the ritual culture of the oasis people. The rituals in the folk music art of the Surkhandarya oasis and their description are discussed. The folk music art is also highlighted. The rituals and ceremonies of the inhabitants of the Surkhandarya oasis, their similarities with other districts, as well as information about customs and traditions are presented. The results of the research indicate the important place of the cultural heritage of the Surkhandarya oasis in the development of the ethnography of Uzbekistan.

Keywords: ceremonies, national costume, cultural heritage, Surkhandarya oasis, Uzbek traditions, material culture, Navruz, Navruz sabo, people, folklore values, boychechak, beginning of the year.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Marosim folklorining janrlar tarkibini, ularning marosim tizimidagi o‘rni va vazifasini aniqlash, mavsumiy marosimlar, xususan, Navro‘z bayrami va Boychechak marosimi bilan bog‘liq folklor namunalarining genezisi hamda badiiy xususiyatlarini ochish marosim tizimi va folklorining mazmunini anglash hamda tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, inson hayotining muhim nuqtalarini nishonlash maqsadida maxsus o‘tkaziladigan, xalq orasida qat’iy an’anaga kirib qolgan xatti-harakatlar marosim deyiladi. Marosimlarni o‘tkazish jarayonida ijro etiladigan qo‘shiqlar va aytimlar marosim folklorini tashkil etadi.

Xalq lirikasining marosimdan ajralgan

janrlari evolyutsiyasi va o'ziga xos namoyon bo'lish yo'llari bu janrlarni qiyosan tadqiq etish orqali amalga oshadi. Folklorshunoslikda marosim folklori janrlarini ikki katta guruhga ajratish an'anasi mavjud. Bu turlar quyidagi ko'rinishga ega:

- mavsumiy marosimlar folklori;
- oilaviy marosimlar folklori.

Mavsumiy marosimlar yil fasllarining almashinuvi, ularning boshlanishi va yakuni, ma'lum bir xo'jalik turlarining boshlanishi hamda yakun topishi, ob-havo bilan bog'liq mavsumiy marosimlarni o'z ichiga oladi. Mavsumiy marosimlarning aniq vaqti, belgilangan o'tish muddatlari mavjud bo'lib, ular bir oila yoki jamoaga emas, balki butun xalq ommasiga tegishlidir.

Mavsumiy marosimlar yilning to'rt fasliga oid bo'lib, xalqning yashash va mehnat tarzi bilan chambarchas bog'liqdir. Bahor kirishi bilan dehqon va chorvadorning dala ishlari boshlanadi. Dehqon urug' sepishga tayyorgarlik ko'rish, ariqlarni kovlash bilan shug'ullansa, chorvador yaylovlarga ko'chishga tayyorgarlik ko'radi. Dehqon va chorvador turmushidagi barcha og'ir yumushlar ilgari hashar yo'li bilan amalga oshirilgan.

Kishilarning xo'jalik faoliyatida yoz faslining o'rni alohidadir. Shunga qarab ushbu faslda o'tkaziladigan marosimlar rang-barang bo'lgan. Biroq o'zbek marosim folklorida hozirga qadar atigi bitta janr saqlanib qolgan. Yozgi marosimlar folkloridan faqat shamol to'xtatish bilan bog'liq ayrim janrlar saqlangan.

Kuz faslida dehqon yoz bo'yi qilgan mehnatining samarasini yig'ishtirib oladi, chorvador esa qishlovga yem-xashak va ozuqa tayyorlaydi. Kuzgi marosimlarga «Oblo baraka», «Shamol chaqirish», «Mirhaydar bobo», «Galagov», «Xo'p mayda» marosim qo'shiqlari kiradi.

O'zbek xalq folklorida qishki marosimlardan faqatgina «Gap-gashtak» va «Yas-sun» marosimlarigina saqlanib qolgan. «Gap-gashtak» marosimi erkaklar tomonidan mahalladagi choyxona yoki biror xonadonda o'tkaziladi. «Yas-sun» marosimi asosan ko'chmanchi chorvadorlar o'rtasida

«Qimizxo'rlik» marosimi sifatida yuzaga kelgan bo'lib, uning ma'nosi davrada o'tirish qoidalarini demakdir.

Surxondaryo hududida yashovchi aholining taqvimiy marosimlari folklori o'zining mavsumiy xarakteri va funksional-tarkibiy tuzilishiga ko'ra bahorgi, yozgi, kuzgi va qishki marosimlar folkloriga bo'linadi. Mavsumiy marosimlar folklori janrlari o'zbek xalqining qadimgi ilohiy tasavvurlari hamda vaqt hisobini yuritish bilan aloqador an'anaviy taqvim asosida yuzaga kelgan.

Etnofolkloristik tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, bu hududda mavsum bilan bog'liq quyidagi folklor janrlari va marosimlari mavjud:

Birinchisi — bahor fasli bilan bog'liq urf-odat va marosimlar folklori: «Navro'z», «Sumalak sayli», «Sumalak bazmi», «Yilboshi», «Yil ayrilish oshi», «Qo'sh oshi», «Shox moylar», «Darvishona», «Sust xotin», «Lola sayli».

Ikkinchisi — yoz fasli bilan bog'liq urf-odat va marosimlar folklori: «Xayri xudoyi», «Tulki to'yi», «Shog'ol qochdi», «Quyvon qochdi», «Baraka urug'i», «Oblo baraka», «Suv sayli», «Qovun sayli».

Uchinchisi — kuz fasli bilan bog'liq urf-odat va marosimlar folklori: «Mehrjon bayrami», «Shinni pishirish», «Hosil bayrami», «Hosil to'yi».

To'rtinchisi — qish fasli bilan bog'liq urf-odat va marosimlar folklori: «Birinch qor», «Qor xat», «Sherda» (Gap-gashtak), «Dangona».

Navro'z bayramining nishonlanishi munosabati bilan Surxon vohasida «Yilboshi oshi», «Yil ayrilish oshi», «Loy tutish», «Qush oshi», «Shox moylar», «Darvishona» singari mavsumiy marosimlar o'tkazilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). O'zbek mavsumiy marosimlarining boshlanishi bevosita Navro'z bayrami bilan aloqador. Navro'z yangi yil, yilboshi deb ham yuritiladi. Ya'ni qish va yoz (ikki qutb)ning o'zaro kurashuvi, qish tomonning yengilib chekinishi natijasida bahor kirib keladi, degan dualistik qarash ushbu marosimda eng tayanch tasavvur hisoblanadi.

Navro'zni kutib olish va tantana qilish jarayonida o'tuvchi barcha marosim halqalarida ana shu kurashni tasvirlash va ifodalashga yo'naltirilgan urf-odatlar muhim o'rin tutadi.

Surxon vohasida ham keng tarqalgan marosim va bayramlardan biri Navro'z hisoblanib, u yangi yil, orzu-umidlar ushalishi ramzi sifatida keng nishonlanib kelmoqda. Navro'z — fors-tojikcha «nav» — yangi, «ro'z» — kun so'zlaridan tuzilgan bo'lib, o'zbek tilida «yangi kun» yoki «yangi yilning birinchi kuni» degan ma'noni bildiradi.

Navro'zning paydo bo'lish tarixi, mohiyati va fazilatlari to'g'risida Abulqosim Firdavsiyning «**Shohnoma**», Abu Rayhon Beruniyning «**Kitob at-tafhim**» va «**Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar**» asarlarida muhim ma'lumotlar berilgan. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning eralar haqidagi risolasini o'qir ekanmiz, qiziqarli misolga duch kelamiz. Bayt ul-Muqaddasdagi diniy marosimlar uning vaqti bilan bog'liq bo'lgan.

Abu Rayhon Beruniy «**Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar**» asarida ham Navro'z haqida e'tiborga molik fikrlarni qayd etgan. Ona tilimiz taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkir Mahmud Qoshg'ariyning «**Devonu lug'otit turk**» asarida ham Navro'z haqida go'zal satrlar uchraydi.

Sharqning yana bir buyuk allomasi Yusuf Xos Hojibning «**Qutadg'u bilig**» («Saodatga boshlovchi bilim») asarida:

Sharqdan esgan nasim olamni bezash uchun jannat yo'lini ochadi, yerga ifor to'kiladi, —

degan fikrlar bahorning hayotbaxsh kuchini ifodalaydi.

Falsafiy mushohadalarga boy o'tkir satrlar sohibi Umar Xayyom «**Navro'znoma**» asarida ham tiriklik va yangilanish g'oyalarini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlagan. Abulqosim Firdavsiy o'zining «**Shohnoma**» asarida Navro'z haqida qayd etgan bebaho fikrlar asrlar osha xalq qalbida yashab kelmoqda.

Bunday ilg'or qarashlarni Nosir Rabg'uziyning «**Qissai Rabg'uziy**», Sa'diy Sheroziyning «**Guliston**», shuningdek, Lutfiy, Jomiy, Alisher Navoiy, Furqat, Zavqiy va boshqa ulug' adiblar ijodida ham kuzatish mumkin.

Mavlono Muqimiyning:

*Navbahor ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar,
Suhbat aylaylik, kelinglar, jo'ralar, o'rtoqlar.
Xush bu mahfilda tiriklik ulfati ahhob ila,
O'ynashib gohi tabiatni qilaylik chog'lar.*

kabi jo'shqin misralari bahor va Navro'z ruhini o'zida mujassam etadi.

Shuningdek,

*Qadam ila to'lib dillar, uyg'ondi butun gullar,
Xush isli havosi-la xo'p keldi shinam Navro'z.*

degan satrlarda ham bahorning go'zalligi va Navro'zning inson qalbiga baxsh etadigan quvonchi o'z ifodasini topgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / RESULTS AND DISCUSSION). Qadimgi zamonda Quyoshning Hamal burjiga kirishi, kecha bilan kunduzning tenglashishi yil boshi hisoblangan. Bu hodisa eski quyosh taqvimini bo'yicha 22-martga to'g'ri keladi. Navro'z shodiyonasi ikki qismga bo'lingan: **1) kichik Navro'z; 2) katta yoki maxsus Navro'z bayrami.** An'analarga binoan, kichik Navro'zdan boshlab tabiatdagi hamma narsa uyg'onadi va hayotga kiradi.

Qadimdan Navro'z munosabati bilan xalqqa tortiqlar ulashilgan, mahbuslarga ozodlik e'lon qilingan. Navro'z odatda 22-martda boshlanib, bir hafta-o'n kun davom etgan. Bayramga tayyorgarlik esa ancha oldin boshlangan. Yangi kiyimlar tikilgan, hovli va ko'chalar tozalangan, sumalak tayyorlash uchun bug'doy undirilgan. Hunarmandlar qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, ro'zg'or buyumlari va kiyim-kechaklar tayyorlab, bayramni munosib kutib olishga o'z hissalarini qo'shganlar.

Dehqonlar va bog'bonlar ekin ekishni boshlab, yer hamda daraxtlarni parvarish qilganlar. Odamlar g'am-anduh va tashvishlarni unutishga harakat qilgan, urushganlar yarashgan. O'zaro mehr-oqibat, olijanoblik va muruvvat tuyg'ulari yanada kuchaygan. Kasallarni, keksa kishilarni borib ko'rish, ularning ko'nglini ko'tarish, yetim-yesirlarga yordam berish, «Kelin chorladi», «Chaqaloq ko'rdi» kabi odatlar ham Navro'z bayramining ajralmas qismi hisoblangan.

Uloq, kurash, xo'roz urishtirish, qo'chqor urishtirish kabi xalq o'yinlari ham o'tkazilgan.

Hayotimiz turfa rang bo'lsin, degan ma'noda bayram kuni tuxumlar turli ranglarga bo'yalgan. Yil davomida qushdek yengil va sog'lom bo'laylik, degan niyatda arg'imchoq uchilgan, mushoiralar uyushtirilgan. Yoshlar bahor, hayot, muhabbat, do'stlik va yoshlik haqida qo'shiqlar kuylaganlar. «Navro'zi ajam», «Navro'zi arab», «Navro'zi bayotiy», «Navro'zi sabo», «Navro'zi xoro» kabi kuylar ijro etilgan. Shu kuni tug'ilgan chaqaloqlarga Navro'z deb ism qo'yish odati ham mavjud bo'lgan.

Respublikamizning bir qator viloyatlarida turli shakl va ko'rinishlarda hozirgacha saqlanib kelayotgan **«Boychechak»** marosimi yangilanish, yasharish, bahor faslining darakchisi va Navro'z ayyomining boshlanishi hisoblanadi. Mazkur marosimning nisbatan to'liq ko'rinishlarini Surxon vohasining Boysun tumani hududida kuzatish mumkin.

Bu yerda bolalar erta ko'klamda boychechakni topib, bir guruh bo'lib, jo'raboshi boshchiligidagi xonadonma-xonadon yuradilar. Boychechakchilar har bir xonadon darvozasi oldida to'xtaganda, jo'raboshi quyidagi qo'shiqni kuylaydi:

Boychechak aytib keldik eshigingizga,

Xudoim o'g'il bersin beshigingizga.

Guruh esa quyidagicha javob beradi:

Boy-boy, boychechak,

Uyingizga soch tilla.

Iloyim o'g'il bersin,

Otginasi Rahmatilla.

Uy egasi ko'ringanda esa:

O'tirib chiqing, o'tirib chiqing,

Yog'och tovoqni to'ldirib chiqing,

— deya murojaat qilinadi.

Xonadon sohibi jo'raboshi tutib turgan boychechakni tavof qilib, imkoniyatiga qarab boychechakchilarga turli sovg'alar ulashadi. Agar uy egasi hech narsa bermasa, boychechakchilar xalq og'zaki ijodida uchraydigan hazilomuz yoki kinoyali aytimlarni aytganlar.

Qadimda o'tkazilgan **«Boychechak»** marosimida qish va bahorning kurashi sahna ko'rinishlari orqali ifodalangan. Boychechak tutgan jo'raboshi bahor timsolida o'z sheriklari bilan xonadonma-xonadon yurib qishni haydagan. Qish timsolini ifodalovchi guruh esa

ularga ramziy qarshilik ko'rsatgan. Oxir-oqibat qish chekinib, butun qishloqni tark etgan. Qish va bahor o'rtasidagi asosiy ramziy kurash katta dalada o'tkazilgan. Unda har ikki tomon aytim va qo'shiqlar vositasida bahslashgan.

Bayramning mazmuni va g'oyasi xalqning eng yaxshi fazilatlarini, mehnatga bo'lgan munosabatini, estetik didini, vatanparvarlik, hamjihatlik va insonparvarlik kabi yuksak qadriyatlarni shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan. Bularning barchasi Navro'zning xalq qalbidan chuqur o'rin olganini va u xalqimizning eng qadimiy hamda sevimli bayramlaridan biri ekanini yaqqol ko'rsatadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Surxon vohasi aholisining an'anaviy mavsumiy marosim qo'shiqlari bu hududda istiqomat qiluvchi kishilarning o'ziga xos turmush tarzi, kundalik mashg'uloti va vaqt hisobining muayyan davrlari bilan aloqador urf-odat hamda rasm-rusumlarini o'zida aks ettirgani bilan ajralib turadi. Mavsumiy marosimlar bilan bog'liq ko'plab qo'shiqlar va aytimlarning an'anaviy matnlari hozirga qadar folklor namunasi sifatida o'zining jonli ijro holatini saqlab qolgan.

Keyingi yillarda Surxondaryo viloyatida ko'plab folklor-etnografik ansambllar tashkil etilganligi hamda hududga xos folklor an'analari saqlab qolish va ularni yangicha badiiy shaklda sahnaviy talqin qilish bunday jamoalar faoliyatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Natijada mavsumiy marosim folklori namunalarining badiiy jihatdan qayta ishlangan, ya'ni qayta poetik idrok etilgan sahnaviy folklorizm ko'rinishlari yuzaga kelgan.

Xalqimizning eng qadimgi ohanglarida abadiy go'zallik va ko'rkamlilik mujassam. Ko'hna navolarda bobolarimiz va momolarimizning dil ohanglarini eshitgandek bo'lamiz. Bugungi kunda Navro'z bilan bog'liq qo'shiqlarda yurt ozodligi, ma'naviy qadriyatlarimizning xalqimizga qaytishi g'oyasi tarannum etilmoqda. Navro'z bayrami qo'shiqlarida mehr-oqibat, qut-baraka, mo'l hosil olish g'oyasi, el-yurt osoyishtaligi va farovonligi badiiy talqin qilinmoqda.

Bu qo'shiqlar ko'nglimizning tub-tubida yotgan ezgu tuyg'ularni uyg'otadi. Mazkur marosimlar, bir tomondan, o'zbek xalqi qadriyatlarining boyligi va qadimiyligini dalillasa, ikkinchi tomondan, o'zbek xalqining qadim zamonlardan buyon uyushgan millat ekanini tasdiqlaydi.

Biz, yoshlar, xalqimiz hayotida ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan milliy qadriyatlarni asrash, davom ettirish hamda zamonaviy madaniyat va san'at shakllari orqali ularni xalqimizga, qolaversa, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy olamiga singdirish vazifasini bajarishimiz lozim.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Qosimov N. Musiqa folklor ijrochiligi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2003.
2. Toshmatov O'. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2015.
3. Qoraboyev U. O'zbekiston bayramlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
4. Bo'riyev O. Navro'z tarixidan lavhalar. – Toshkent: O'zbekiston, 1991.
5. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1986.
6. Tursunov S. va boshqalar. O'zbekiston tarixi va madaniyati. Surxondaryo etnografiyasi.
7. Tursunov S. Boysun. – Toshkent: Akademnashr.
8. Tursunov S., Pardayev T. Surxondaryo – etnografik makon. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
9. Qobilov E. Surxon vohasi xo'jaligi. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 259 b.
10. Raxmonov M. R. Surxon vohasida marosim va rasm-rusumlar. // Modern Science and Research. – 2024.
11. Nasriddinova F. A. Marosim folklorida mavsumiy marosimlarning o'rni. // New Renaissance International Scientific and Practical Conference. – September, 2024.
12. Sattorov Q. X. Surxon vohasi musiqa san'atida marosimlar. // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2024. – № 5. – B. 25–28.